



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MÁMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASI
B U Y R Í G'I**

2022 yil 05-Yanvar

№01

Nókis qalası.

**«1-sonli Bosmaxona» MChJning
xususiylashtirilgan ustav fondidagi
26 va 63,3 foiz davlat ulushlariga mulk huquqini
tasdiqlovchi sertifikatni berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi "Davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 279-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida va Qoraqalpog'iston Turkman Milliy madaniy markazining 2022-yil 27-dekabrdagi 29/12-1-sonli murojaatiga muvofiq **buyuraman:**

1. «1-sonli Bosmaxona» MChJning ustav fondidagi 26 foiz ulushi 2005-yil 20-iyuldagi 50-sonli oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq «Mekan» gazetasiga va «1-sonli Bosmaxona» MChJning ustav fondidagi 63,3 foiz ulushi 2005-yil 23-avgustdagi 5/5-sonli oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Turkman Milliy madaniy markaziga ommaviy savdolar orqali xususiylashtirilganligi va to'lig'i bilan hisob-kitob qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi (Karlibaev) «1-sonli Bosmaxona» MChJning ustav fondidagi 26 foiz ulushi «Mekan» gazetasiga va «1-sonli Bosmaxona» MChJning ustav fondidagi 63,3 foiz ulushi Qoraqalpog'iston Turkman Milliy madaniy markaziga «tasarruf etish huquqi bilan» mulk huquqini tasdiqlovchi sertifikatlarini rasmiylashtirilgan holda topshirish ta'minlansin.

3. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Boshqarma boshlig'i



M.Radjabov